



ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGI MOHIYATI

Bekmuratova Sh.N.

Andijon davlat pedagogika instituti

“Tasviriy san’at va musiqa ta’limi” kafedrası (PhD), dotsent v.b.

Tayanch soʻzlar: kompetensiya, pedagogik texnologiya, funktsional, intellektual, kompozitsiya, kuzatish, yaratish usullari, shakllari, vositalari, integratsion, innovatsion, ijodkor, siyosiy-ijtimoiy.

Ключевые слова: компетентность, педагогическая технология, функциональная, интеллектуальная, композиция, наблюдательность, творческие методы, формы, инструменты, интеграция, инновационная, творческая, политико-социальная.

Key words: competence, pedagogical technology, functional, intellectual, composition, observation, creative methods, forms, tools, integration, innovative, creative, political-social.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqola hozirgi zamonda dolzarb bo'lib hisoblangan masala, ya'ni, zamonaviy ta'lim tizimida tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentligi mohiyati haqida yoritilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье описывается проблема, считающаяся актуальной в современное время, а именно природа профессиональной компетентности учителей изобразительного искусства в современной системе образования.

SUMMARY:

This article describes the issue that is considered relevant nowadays, the nature of professional competence of visual arts teachers in the modern education system.

Zamonaviy voqelikni ilm-fan, texnologiya va texnologik inqiloblarisiz tasavvur etib boʻlmaydi. Shunga koʻra shaxsning jamiyatdagi oʻrni masalasida tub burilish vujudga kelayotgan boʻlib, alohida olgan shaxslarning mana shu burilishlarini vujudga keltirishdagi intellektual shaxsiy kuchini, uning ijodiy potensialini va mohiyatan yangi narsalarni yarata olish imkoniyatlarni inobatga olmasdan turib, shaxs shakllanishi jarayonini tashkillashtirib boʻlmasligi ayon. Shu nuqtayi nazardan jahonning barcha rivojlangan davlatlarida ijodiy potensialga ega boʻlgan iqtidorlarni shakllantirish, ularni dunyo boʻyicha qidirib topish, ularning intellektual imkoniyatlarini namoyon etishi uchun shart-



sharoit yaratib berishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur masala bugungi kunda birinchi galdagi vazifaga aylanib bormoqda va uning siyosiy-ijtimoiy ahamiyati kundan kun ortmoqda [1; 113-b].

Darhaqiqat, so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimini mazmuni tubdan yangilanib, pedagogik amaliyotga o'qitishning yangi va zamonaviy uslublari joriy etilmoqda. Oliy ta'limdagi o'zgarishlar mohiyatan shaxs yaratishga, uning intellektual salohiyatini ta'minlashga, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisida zamonaviy bilimlar bo'yicha to'laqonli tasavvur hosil qilishga, abstrakt voqelikka emas, balki aynan real voqelikka, xususan real hayotga yo'naltirish, buning uchun ta'lim dargohlarini asbob-uskunalar va zarur ashyolar bilan ta'minlash, uning sifat darajasini ko'tarishga alohida e'tibor qaratilmoqda [2; 120-b].

Uzluksiz ta'limning samarali amalga oshishi tizimning barcha bo'g'inlarida, sub'yektlarida raqobatbardoshlik, ko'p qirralilikni ta'minlashga bog'liq bo'lib, eng avvalo, zamonaviy ijtimoiy munosabatlar, innovatsion yutuqlarning almashinish tezligi, ayniqsa, kadrlar tayyorlash tizimi mazmuni va sifatini uzluksiz takomillashtirish jarayoni bilan tavsiflanadi.

Shuning uchun respublikamizda ta'lim tizimini rivojlantirishning muhim istiqbolli yo'nalishlaridan biri – bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borish, mamlakatimiz va xorijdagi eng ilg'or tajribalarni keng ommalashtirish hamda zamonaviy innovatsion o'quv muhitini yaratishdan iborat.

Xususan, Pifagor (miloddan avval VI asr) to'g'ri va samarali ta'lim jarayoni o'qituvchi va o'quvchining har birining xohishiga asosangina tashkil qilinishi kerak, deb aytadi. Uning fikriga ko'ra, bolada qiziqish, uning pedagogik maqsadga bo'lgan ijodiyligi bo'lmasa, ta'lim va tarbiya jarayoni samarali kechmaydi.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatning ma'naviy, ilmiy, intellektual, siyosiy-ijtimoiy salohiyatini kengaytirishga yo'naltirilgan, shuningdek, davlatning ijtimoiy, iqtisodiy va ilmiy-texnik taraqqiyotiga turtki bo'luvchi omil sifatida baholanadi va moddiy, intellektual ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Binobarin, zamonaviy indikatorlar tizimi orqali kasbiy faoliyat samaradorligini baholash hamda boshqarish mexanizmlarini optimallashtirish muhim sanaladi. Bu borada ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kompetensiya (lot.: *competentia* – tegishli, oid, aloqador, mos, muvofiq kelish) atamasi ma'lum sohaga oid bilim, malaka va ko'nikmalar, tajribani anglatadi. "Kompetensiya" tushunchasi esa sohaga oid bilim, ko'nikma, malaka,

qarashlar majmui, kvalifikatsiyasi, shaxsning qadriyati va ijobiy sifatlarini o‘zida namoyon etish qobiliyatidir [3;14-b.]. Kompetensiya bilan yonma-yon keluvchi yuqorida aytib o‘tilgan kompetentlik tushunchasi quyidagi ma’noni anglatadi: “kompetentlik” – voqea-hodisalar, masalalar yechimi to‘g‘risida xabardor bo‘lish, muayyan nufuzga ega bo‘lishni o‘zida ifoda etadi [127; 15-b.]. Mazkur tushuncha esa mutaxassisning shaxsiy va kasbiy tayyorgarligiga nisbatan quyiladigan talablar tizimini belgilaydi.

Pedagog olim S.Abdurasilov «Tasvirlash bu kuzatish, yaratish, ixtiro qilish demakdir», deb bejiz aytmagan [4;15-b.]. Shunga ko‘ra bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining metodik tayyorgarlik tuzilmasida grafik savodxonlik hamda atrof-muhitni estetik idrok etishga oid kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligi tuzilmasi tarkibida asosiy komponentlar sifatida, quyidagi kompetensiyalar shakllantirish lozim:

- tasvirlanayotgan buyumlarni o‘ziga xos jihatlarini ko‘ra bilish, ularni o‘zaro taqqoslash;
- tasvirlanayotgan buyumlarni geometrik shakli, konstruktiv tuzilishini tarkibiy qismlari, rangi va fakturasini tasvirlash;
- buyumlarni tasvirlashda ularni tahlil qilish asosida real holatda chizish;
- egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliyotda bosqichma-bosqich qo‘llay olish.

Shu o‘rinda italyan olimi va buyuk rassomi Leonardo da Vinching «Rangtasvir qonunlari» nomli asarida: «Yoshlar o‘zlarini ilm-fan, tasviriy san’atda sinamoqchi bo‘lsalar, avvalo, rasm chizishni mukammal bilmoqlari lozimdir» degan fikrni keltirib o‘tish o‘rinli. Leonardo da Vinching o‘zining asarida qalamtasvirga oid «Tajribasiga va ko‘zlariga ishonib, fikr-o‘yisiz ravishda ko‘chirib chizuvchi rassom, xuddi qarshisidagi qo‘yilgan predmetlari, ularni bilmagan holda aks ettirayotgan ko‘zgu kabidir», -deya ta’kidlagan edi.

K.Rojers esa (1902-1987) A.Maslou fikrilariga o‘xshash qarashlarni bildirib o‘tadi va unga ergashadi. Uning fikriga ko‘ra, ijodiylikning universal hodisa ekanligiga ishonadi. Chunki u milliy hodisa emas, ya’ni bitta millatga xos bo‘lgan, boshqa millatlarda mavjud bo‘lmagan hodisa emas. Ijodiylik umumbashariy hodisadir. Shu bilan birga, ijodiylik mavjud bo‘lishi uchun sotsium insonlar va jamiyat birgalikda yashaydigan odamlar (bir mamlakat, bir shahar, bir uy), umumiy manfaatlar, mulk, resurslarga ega bo‘lgan mafkuraviy jamoa) bo‘lishi zarur. Ijodiylik jamiyat ehtiyojlari asosida rivojlanadi. Olim universallik aynan jamiyat mahsuli ekanligini ta’kidlab o‘tadi. Zero jamiyatning



o'zida ijodkor bo'lish uchun barcha sharoitlar mavjuddir. Chunki hayotga munosabat, hayotda yashash malakalari ijodiylikni har qadamda talab qilishi mumkin. Uning fikriga ko'ra, ijodiylik belgilangan maqsadli xatti-harakatlar majmui orqali yangi mahsulotni yaratish jarayonidir [5;246-b]. Shuning uchun ham bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari o'zlarini ustida muntazam ishlashlari zarurligini ta'kidlaydi.

XIX asrning birinchi yarmida ijod qilgan mashhur rus rassomi K.P.Bryullov «Rassom bo'lish uchun, avvalambor, qalamda rasm chizishni bilish kerak, chunki qalamtasvir san'atning asosini tashkil etadi», -deb ta'kidlab o'tgan.

Rus rassomi va pedagogi, professor P.P.Chistyakov [7;188-b.] yosh rassom va pedagoglarga «San'at ilmsiz yashay olmaydi, ilm-fan o'zining yuqori nuqtasida san'atga aylanadi», «Shakllarni ko'ra olmaydigan har qanday kishi chiziqni ham to'g'ri chiza olmaydi». «Predmetni borligicha va bizning ko'zimizga qanday ko'rinarayotgan bo'lsa, shundayligicha tasvirlash hamda bir paytda uning «ko'rinishi» va «mohiyatini» ham ifodalash kerak», -degan edi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi jismlarning geometrik tuzilish hamda narsalarning tarkibini aniq va tabiiy holatidagidek ko'rinishini nur va soya orqali ifodalaydi Misol tariqasida natyurmort janrida tasvirlanayotgan predmetlarni yorug'lik tushayotgan tomoniga qarab o'zgarishiga, buyumlarni materialligiga, egriliklar yoki tekisliklar joylashuviga e'tibor berishi kerak.

Perspektiva buyumning fazoviy holatini tekislikda to'g'ri tasvirlash metodlarini ochib beruvchi fan. Ma'lumki, har bir buyum, u qanday shaklga ega bo'lishidan qat'iy nazar, perspektiva qonunlariga asosan qisqarishi mumkin. Lekin ko'p hollarda talabalar bu nazariyaga e'tibor bermaydilar. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, talaba aylana shaklli buyumlarni tasvirlashda, uning fazoviy holatini to'g'ri topa olmaydi va buyumning perspektivaga asosan qisqarishida qo'pol xatoga yo'l qo'yadi.[6;246-b.] Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari bilimlarini tasviriy san'at turlarini bilish orqali mustahkamlashda tasviriy-ifodaviy vositalar san'atning sir asrorlarini tushuntira olish kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi tasviriy san'atning nazariy asoslari tarkibidagi kompozitsiya, rangshunoslik asoslari, perspektiva qonuniyatlarini bilishi va ijodiy faoliyatida tatbiq eta olishi ham uning kasbiy metodik tayyorgarligi tuzilmasining muhim kompotenti hisoblanadi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisini kasbiy-metodik faoliyatini takomillashtirish tuzilmasida tasviriy san'at tarixi, uning tur va janrlarining xususiyatlarini o'quvchilar yosh toifasi, tayyorgarlik darajalariga monand



tarzda taqdim etish kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Keltirilgan sharhlarga asoslanib, shunday xulosaga kelish mumkinki, kasbiy kompetentlik – muayyan sohaga oid bilim, ko'nikma va tajribalarning umumlashmasi bo'lib, mazkur salohiyatdan amaliyot jarayonida samarali foydalana olish qobiliyatining yuzaga chiqishi demak.

Shu bilan birga, har bir soha vakili faoliyatining eng muhim jihatlaridan biri bo'lgan kasbiy kompetentlikning ma'naviy-ahloqiy tamoyillariga asoslangan holda bo'lishi muhim hisoblanadi. Binobarin, ma'lum sohada kompetentli bo'lgan mutaxassis, mazkur sohaga oid masalalarni o'zining samarali harakatlarini tashkil eta olishi bilan asosli mulohaza yuritishi, tegishli ravishdagi kompetensiyalarga ega bo'lishi bilan belgilanadi. Binobarin, aytib o'tilgan faoliyatni yuritishda shaxsning individual-psixologik tayyorgarligini ko'rsatuvchi xislatlar, xususiyatlar, muayyan bilim, professional tajriba va motivatsiya (verbal, noverbal turtki) talab etiladi.

Kasbiy kompetentlikka oid so'nggi tushunchalarni batafsilroq tahlil qilib, mutaxassis kasbiy rivojlanishining dastlabki bosqichlarida kasbiy kompetentlikning funksional rivojlanishi nisbiy mustaqillikga ega bo'lgan bo'lsa, kasbiy faoliyatni mustaqil bajarish bosqichida esa kompetentlik tobora professional muhim kasbiy fazilatlar bilan birlashishini anglab yetishimiz mumkin.

Adabiyotlar:

- 1 Sharipov Sh., Aripov M., Begimkulov U., Yo'ldoshev U., Muslimov N. Bilim olishning intellektual tizimini ishlab chiqish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. – T.: Fan, 2011. – 240 b.
2. To'raqulov X.A., To'raqulova I. X., Aslanova K.S. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'quv-bilish faoliyatini yuksaltirishning innovasion texnologiyalari. – T.: «Innovation rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2020. – 336 b.
3. Турдиев Н.Ш., Асадов Ю.М., Акбарова С.Н., Темиров Д.Ш. Умумий ўрта таълим тизимида ўқувчиларнинг компетенцияларини шакллантиришга йўналтирилган таълим технологиялари. – Т.: Т.Н. Қори Ниёзий номидаги Ўзбекистон педагогика фанлари илмий-тадқиқот институти, 2015. –14 б.
4. Педагогик атамалар луғати. Т.: Меърос, 2014. – 15 б.
5. Ростовцев Н.Н. Методика преподавания изобразительного искусства в школе. //Учебник для студентов худ.- граф, фак-тов. –М.: Просвещение, 1980. –246 с.
6. Boymetov B. Haykaltaroshlik va plastik anatomiya. –T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2007. –120 b.
7. Drapeau, Patti. Sparking Student Creativity: Practical Ways to Promote Innovative Thinking and Problem Solving. ASCD, 2014. –188 p.